

Seleksiya yutug'iga O'zbekiston Respublikasi patentini berish
uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish
QOIDALARI

(O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi direktorining 2004 yil 30 dekabrda 62-son buyrug'i bilan TASDIQLANGAN, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yilning 14 yanvarida 1443-son bilan RO'YXATDAN O'TKAZILGAN)

I bob. Seleksiya yutug'iga patent berish uchun talabnoma tuzish va topshirish. Talabnoma topshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar

II bob. Patent olish bo'yicha Patent idorasi bilan ishlarni yuritish

III bob. Talabnomani ko'rib chiqish

Mazkur "Seleksiya yutug'iga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (bundan buyon matnda Qoidalar deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, seleksiya yutug'iga patent berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

Qisqartirishlar ro'yxati:

Qonun - O'zbekiston Respublikasi "Seleksiya yutuqlari to'g'risida" Qonuni;

Patent idorasi - O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi;

Seleksiya yutug'i - yangi o'simlik navi, yangi hayvon zoti;

Ixtisoslashtirilgan tashkilot - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi, Chorvachilikda naslchilik ishlari bo'yicha Davlat bosh inspeksiyasi;

Talabnoma - seleksiya yutug'iga patent berish uchun talabnoma;

Botanik va zoologik oila turkumlari va turlari ro'yxati - O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan o'simlik navlari va hayvon zotlarining botanik va zoologik oila turkumlari va turlari Davlat ro'yxati;

BIMT - Butunjahon intellektual mulk tashkiloti.

I bob. Seleksiya yutug'iga patent berish uchun talabnoma tuzish va topshirish.

Talabnoma topshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar

1-§. Seleksiya yutug'iga patent berish uchun talabnoma

1. Qonunning 8-moddasiga muvofiq, agar seleksiya yutug'i yangilik, farqlanish, turdoshlik, barqarorlik kabi patentga layoqatlilik mezonlariga javob bersa, nomi esa belgilangan talablarga mos kelsa, unga huquqiy muhofaza beriladi.

2. Qonunning 9-moddasiga muvofiq, agar urug'lik, navning ko'chat materiali yoki zotning nasl materiali patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran:

O'zbekiston Respublikasi hududida - kamida bir yil oldin;

boshqa davlat hududida - kamida to'rt yil yoki, agar tok, yog'ochbor, manzarali, mevali daraxtlar va o'rmon daraxtlarining navlariga taalluqli bo'lsa, kamida olti yil oldin muallif, uning merosxo'ri tomonidan yohud ularning roziligi bilan sotilmagan va foydalanish uchun boshqa shaxslarga berilmagan bo'lsa, yangilik hisoblanadi.

3. Qonunning 10-moddasiga muvofiq seleksiya yutug'i patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanada boshqa har qanday barchaga ma'lum seleksiya yutug'idan aniq-ravshan farqlanishi lozim.

Barchaga ma'lumlik:

keyinchalik ko'paytirish, saqlash maqsadlarida yetishtirish, takror yetishtirish, nav yoki nasllik konditsiyasiga yetkazish va yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarda asrash natijasida barchaga ma'lum bilim darajasining bir qismiga aylangan seleksiya yutug'iga nisbatan;

sotishga taklif etilgan, sotilgan, mamlakatga olib kirilgan yoki mamlakatdan olib chiqib ketilgan seleksiya yutug'iga nisbatan aniqlanadi.

4. Qonunning 11-moddasiga muvofiq, agar ko'paytirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olganda muayyan navli o'simliklar yoki muayyan zotli hayvonlar seleksiyalashtirish belgilariga ko'ra bir xillikka ega bo'lsa, seleksiya yutug'i turdosh hisoblanadi.

5. Qonunning 12-moddasiga muvofiq, agar seleksiya yutug'i bir necha marta ko'paytirilganidan keyin yoki alohida sikl bo'yicha ko'paytirilgan taqdirda ko'paytirishning har bir sikli oxirida uning asosiy belgilari o'zgarishsiz qolsa, u barqaror hisoblanadi.

2-§. Talabnoma mazmuni

6. Qonunning 17-moddasi birinchi qismiga muvofiq patent berish haqidagi talabnoma:

a) muallif (hammualliflar) va kimning nomiga patent so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs (shaxslar), shuningdek ularning turar joyi yoki manziliga doir ma'lumotlar ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani hamda seleksiya yutug'ining nomi to'g'risidagi taklifni;

- b) seleksiya yutug'ining tavsifini (texnikaviy anketasini);
- v) seleksiya yutug'i namunalarining fotosuratlarini;
- g) talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazilgan seleksiya yutug'i sinovlariga doir hujjatlarni;
- d) talabnoma beruvchining seleksiya yutug'idan foydalanilmaganligi, u sotilmaganligi, o'zga shaxsga berilmaganligi hamda uning yangilik talablariga mosligini tasdiqlaydigan deklarasiyasini;
- e) seleksiya yutug'ining ustuvorligini tasdiqlovchi hujjatni (zarurat bo'lganda);
- j) talabnoma beruvchining seleksiya yutug'ini sinovdan o'tkazish uchun materialni belgilangan muddatda ixtisoslashtirilgan tashkilotga taqdim etish majburiyatini;
- z) talabnoma patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilganida ularga berilgan ishonchnomani;
- i) patent boji belgilangan miqdorda to'langanligini yohud patent boji to'lashdan ozod qilish, shuningdek uning miqdorini kamaytirish asoslarini tasdiqlovchi hujjatni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Ushbu bandning (d), (e) bandchalarida ko'rsatilgan talabnoma hujjatlari talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etiladi.

Agar ko'rsatilgan muddatda talabnoma beruvchi ushbu hujjatlarni taqdim etmasa yoki ko'rsatilgan muddatni uzaytirish to'g'risida iltimosnoma torshirmasa, talabnoma torshirilmagan deb hisoblanadi.

7. Talabnomaga belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlovchi hujjat yoki patent bojini to'lashdan ozod qilish yohud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlovchi hujjat ilova etiladi.

8. Patent vakili yohud boshqa ishonchli shaxs orqali beriladigan talabnomaga, unga talabnoma beruvchi tomonidan berilgan va uning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki ishonchnomaning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan nusxasi ilova etiladi.

9. Qonunning 17-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq patent berish haqidagi talabnoma bitta seleksiya yutug'iga taalluqli bo'lishi lozim (yagonalik talabi).

10. Avvalroq ustuvorlik so'ralayotgan talabnomaga O'zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida shartnoma tuzgan boshqa davlatga talabnoma beruvchi tomonidan topshirilgan birinchi talabnomaning (bundan buyon matnda birinchi talabnoma deb yuritiladi) tasdiqlangan nusxasi va uning o'zbek yoki rus tilidagi tarjimai talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan uch oydan kechikmagan holda ilova qilinadi. Agar birinchi talabnomalar bir nechta bo'lsa, u holda barcha ushbu talabnomalarning nusxalari va ularning o'zbek yoki rus tilidagi

tarjimalari ilova qilinadi. Birinchi talabnoma nusxasining tarjimasi uni amalga oshirgan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanadi.

11. Avvalroq ustuvorlikni belgilash to'g'risidagi iltimos talabnomani topshirishda taqdim etilishi mumkin.

Ushbu shartlarni bajarishda talabnoma beruvchi Qonunning 18-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq birinchi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran uch yil ichida qo'shimcha hujjatlar va sinov uchun zarur bo'lgan materialni taqdim emaslikka haqli.

12. Patent berish to'g'risidagi ariza o'zbek, rus yoki boshqa tillarda topshiriladi.

Agar talabnoma hujjatlari boshqa tilda topshirilgan bo'lsa, u holda talabnomaga ularning o'zbek yoki rus tilidagi tarjimasi ilova qilinadi, tarjima talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanadan ikki oy muddat ichida taqdim etilishi lozim.

13. Ushbu Qoidalarning 6-bandi (a), (b), (v) kichik bandlarida ko'rsatilgan talabnoma hujjatlari to'rt nusxada topshiriladi: 3 nusxasi qog'ozda, to'rtinchisi elektron ko'rinishda mashinada o'qiladigan axborot tashuvchida (bundan buyon matnda MO'T deb yuritiladi) topshirilishi mumkin.

Ushbu Qoidalarning 6-bandi (g), (d), (j) kichik bandlarida ko'rsatilgan talabnoma hujjatlari ikki nusxada topshiriladi: bir nusxasi qog'ozda, ikkinchisi MO'T da topshirilishi mumkin.

Qog'ozdagi va MO'T dagi talabnoma hujjatlari va qo'shimcha materiallarning mazmuni aynan bir xil bo'lishi lozim. Ushbu materiallarning aynan bir xilligiga talabnoma beruvchi javobgardir.

Qolgan hujjatlar va, agar ular o'zga tilda tuzilgan bo'lsa, ularning o'zbek yoki rus tilidagi tarjimasi bir nusxada taqdim etiladi.

14. Patent berish to'g'risidagi ariza o'zbek yoki rus tilida, ushbu Qoidalarga keltirilgan 1-ilova shaklida topshiriladi. Agar qandaydir ma'lumotlarni tegishli grafalarda to'liq joylashtirishning iloji bo'lmasa, u holda arizaning tegishli grafasida: "davomini qo'shimcha varaqda qarang" deb ko'rsatilgan holda ular shu shakldagi qo'shimcha varaqda keltiriladi.

Chet el ism-familiyalari va korxonalarining nomlari o'zbek yoki rus tilidagi transliterasiyada ko'rsatiladi.

Talabnoma beruvchining nomi (agar bu mumkin bo'lsa), seleksiya yutug'ining nomi o'zbek va rus tillarida taqdim etiladi.

15. Arizaning "Ariza" so'zidan yuqorida joylashgan grafalari Patent idorasiga kelib tushgandan keyin rekvizitlarni kiritish uchun mo'ljallangan bo'lib, talabnoma beruvchi tomonidan to'ldirilmaydi.

16. "Ariza" grafasida "X" belgisi qo'yilgan holda patent so'ralayotgan ob'ektning turi qayd etiladi.

17. 71-kod ostidagi "Talabnoma beruvchi" grafasida, talabnoma beruvchi (talabnoma beruvchilar) to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi: jismoniy shaxsning familiyasi, ismi (otasining ismi), shuni ham nazarda tutish kerakki, familiya ismdan avval ko'rsatiladi, yoki yuridik shaxsning rasmiy nomi (ta'sis hujjati bo'yicha), shuningdek tegishli ularning turar joylari yoki manzillari, jumladan mamlakatning rasmiy nomi, to'liq pochta manzili va BIMTning ST.3 standarti bo'yicha mamlakat kodi (agar u belgilangan bo'lsa).

Agar talabnoma beruvchilar bir necha kishi bo'lsalar, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar ularning har biri uchun alohida keltiriladi.

Seleksiya yutuqlarining mualliflari bo'lgan talabnoma beruvchilarning turar joylari to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu grafada keltirilmaydi, balki faqat 72-kod ostidagi "Muallif(lar)" grafasida bayon etiladi.

So'ngra shu grafaning o'zida, tegishli katakchada "X" belgisi qo'yilgan holda talabnoma beruvchi seleksiya yutug'ining muallifi, muallifning ish beruvchisi yoki muallif yohud ish beruvchining huquq vorisi ekanligi qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalari, tashkilotlari uchun OKPO kodi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi chet el yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar uchun Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ST.3 standarti bo'yicha mamlakat kodi ko'rsatiladi (agar u belgilangan bo'lsa).

18. Ustuvorlikni belgilash to'g'risidagi iltimosni o'z ichiga olgan grafa faqat sanasi talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan bir muncha ilgari ustuvorlik so'ralayotgan bo'lsagina birinchi talabnomadagi nav, zot nomi ko'rsatilgan holda to'ldiriladi.

31- kod ostida, ancha ilgari berilgan birinchi talabnomaning raqami, uning asosida yoki unga qo'shimcha materiallar asosida ustuvorlik so'ralayotgan va so'ralayotgan ustuvorlik sanasi (32-kod ostida, ancha ilgari berilgan talabnoma yoki u bo'yicha qo'shimcha materiallar topshirilgan sana) ko'rsatiladi.

33-kod ostida BIMT ST.3 standarti bo'yicha birinchi talabnoma topshirilgan mamlakat kodi ko'rsatiladi.

19. 54-kod ostidagi a) "Oila turkumi/turining nomi" grafasida botanik yoki zoologik oila turkumi, turining o'zbek va rus tilidagi nomi keltiriladi, shuningdek seleksiya yutug'i taksonomik birligining lotincha nomi (oilal turkumi, turi, tur osti) ko'rsatiladi.

Oila turkumi/turining nomi navni, zotni ham taksonomik tegishliligi bo'yicha va hamda ishlab chiqarishdagi foydalanishi bo'yicha aniq identifikasiyalash uchun to'liq bo'lishi lozim. Masalan: bug'doy - yumshoq, qishki, makkajo'xori - F1 gibridi, tovuqlar - sertuxum.

54-kod ostidagi (b) "Taklif qilinayotgan nomi" grafasida seleksiya yutug'ining nomi keltiriladi va u Qonunning 13-moddasi va mazkur Qoidalarning 26-28-bandlari talablarini qanoatlantirishi lozim.

20. 98-kod ostidagi "Yozishmalar uchun manzil" grafasida yozishmalar uchun manzil, xat oluvchining ismi-sharifi yoki nomi keltiriladi, ular pochta orqali yetkazib berishning oddiy, tezkorlik talablarini qanoatlantirishi lozim va telefon, faks raqamlari, e-mail (agar ular bo'lsa) keltiriladi.

Yozishmalar uchun manzil sifatida O'zbekiston Respublikasida yashovchi talabnoma beruvchi (talabnoma beruvchilardan biri) - jismoniy shaxsning turar joyi manzili, yoki O'zbekiston Respublikasidagi talabnoma beruvchi - yuridik shaxsning joylashgan joyi manzili, yoki Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakilining yohud boshqa ishonchli shaxsning joylashgan manzili ko'rsatilishi mumkin.

Arizada yozishmalar uchun manzil mavjud bo'lmaganida bunday manzil sifatida patent vakili yoki boshqa ishonchli shaxsning joylashgan manzili, agar ular tayinlangan bo'lsa, aks holda esa - arizaning talabnoma beruvchi haqidagi ma'lumotlar grafasida O'zbekiston Respublikasi hududida manzili mavjud bo'lganida, talabnoma beruvchining manzili (agar talabnoma beruvchilar bir nechta bo'lsa - bunday manzillardan birinchisi) hisoblanadi.

21. 74-kod ostidagi talabnoma beruvchi tomonidan patent vakili tayinlangan hollardagina to'ldiriladigan "Patent vakili" grafasida uning to'g'risida quyidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi (otasining ismi), Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan raqami, O'zbekiston Respublikasidagi turar joyi manzili, telefon, faks raqamlari, e-mail (agar ular bo'lsa) keltiriladi.

22. "Ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati" grafasi tegishli kataklarda "X" belgisini qo'yib chiqish va ilova qilinadigan hujjatlarning har bir nusxasidagi nusxalar hamda varaqlar sonini ko'rsatish yo'li bilan to'ldiriladi.

Turi ariza formasida ko'zda tutilmagan ilova qilinadigan hujjatlar ("boshqa hujjat") uchun ularning vazifasi aniq ko'rsatiladi.

23. 72 -kod ostidagi "Muallif" va "To'liq uy manzili" grafalarida seleksiya yutug'ining muallifi (hammualliflari) to'g'risida ma'lumotlar: familiyasi, ismi (otasining ismi), mamlakat nomi va BIMT ST.3 standarti bo'yicha kodini ichiga olgan to'liq turar joy pochta manzili keltiriladi.

24. "Mualliflar" va "To'liq uy adresi" grafalari ostida bevosita joylashgan grafa faqat muallif (hammualliflar) patent berish to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilishda uni (ularni) bunday sifatda eslatib o'tmaslikni so'raganida to'ldiriladi. Bu holda e'lon qilishda o'zlarini ko'rsatmaslikni istagan har bir muallifning familiyasi ismi (otasining ismi) va ularning imzolari keltiriladi.

25. Arizaning oxirgi "Imzo" grafasini imzo qo'yish sanasini ko'rsatgan holda to'ldirish barcha hollarda majburiydir.

Ariza, talabnoma beruvchi tomonidan imzolanadi. Yuridik shaxs tomonidan ariza korxonada, tashkilot rahbari yoki bunday vakolat berilgan shaxs tomonidan uning lavozimi ko'rsatilgan holda imzolanadi.

Imzo muhr bilan tasdiqlanadi.

Talabnoma patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilganda, ariza talabnoma beruvchi yoki patent vakili yohud ishonchli shaxs tomonidan imzolanadi.

Imzolar, imzo qo'yuvchi shaxsning familiyasi va ismi-shariflari ko'rsatilgan holda rasshifrovka qilinadi.

Imzo qo'yishni talab qiladigan u yoki bu ma'lumotlar qo'shimcha varaqda keltirilgan hollarda, u ham shunday tartibda imzolanadi.

Ariza beruvchi, patent vakili yoki ishonchli shaxsning imzosi har bir qo'shimcha varaqda keltirilishi majburiydir.

26. Seleksiya yutug'ining nomi seleksiya yutug'ini identifikatsiya qilishga imkon berishi, qisqa bo'lishi, aynan o'sha yoki yaqin bo'lgan botanik yoki zoologik turdagi mavjud seleksiya yutug'ining nomidan farqlanishi lozim. U faqat raqamlardan iborat bo'lmasligi, seleksiya yutug'ining xossalari, kelib chiqishi, ahamiyatiga, muallifning (hammualliflarning) shaxsiga nisbatan anglashilmovchiliklarga olib kelmasligi, insonrarvarlik va odob-ahloq ritsirlariga qarshi bo'lmasligi lozim.

27. Seleksiya yutug'ining nomida:

urug'chilik, ko'chat yoki naslchilik materiallari uchun ishlatiladigan atamalar va belgilar;

botanik yoki zoologik oila turkumlari, turlari yoki boshqa taksonomik birliklarning lotincha yoki hamma qabul qilgan nomlari;

faqat geografik belgilardan iborat bo'lgan nomlar, navning kelib chiqishi yoki yetishtirilishiga nisbatan aniq shubha uyg'otmaydigan joylar yoki tumanlarga taalluqli geografik belgilar bundan mustasno;

seleksiya yutug'ining belgilari va xususiyatlariga nisbatan yolg'on tasavvurni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan nomlardan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

28. Agar talabnoma O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarda torshirilayotgan bo'lsa, u holda ushbu talabnomalardagi seleksiya yutug'ining nomi bir xil bo'lishi lozim.

29. Navni, zotni tavsiflash 2-, 3-ilovalarda keltirilgan shakllar bo'yicha texnik anketa ko'rinishida taqdim etiladi.

30. Anketaning yuqori o'ng burchagida joylashgan "Talabnoma raqami_____" grafasi talabnoma beruvchi tomonidan to'ldirilmaydi.

31. "Talabnoma beruvchi" nomli 1-bandda talabnoma beruvchining nomi ko'rsatiladi.

32. "Oila turkumi/turining nomi" nomli 2 (a) bandida nav, zot taalluqli bo'lgan botanik yoki zoologik oila turkumi/turining o'zbek va rus tilidagi nomi keltiriladi hamda seleksiya yutug'i taksonomik birligining lotincha nomi ko'rsatiladi.

Zot uchun 2 (b) bandida qo'shimcha ravishda "X" belgisi qo'yilgan holda zotning toifasi qayd etiladi.

2 (v) bandida mahsuldorlik yo'nalishi ko'rsatiladi.

33. "Taklif qilinayotgan nomi" nomli 3-bandda seleksiya yutug'ining taklif qilinayotgan nomi ko'rsatiladi.

34. "Seleksiya yutug'ini kelib chiqishi haqida ma'lumotlar" nomli 4-bandda seleksiya ishi boshlangan yili, chatishtirilgan yili, dastlabki (ota-ona) shakllari hamda rarvarishlash va ko'paytirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan holda seleksiya yutug'ini chiqarish, yaratish, aniqlash tarixi va usuli haqida ma'lumotlar keltiriladi.

35. "Ariza berilgan seleksiya yutug'ining belgilari" nomli 5-bandda belgilangan tartibda belgilar ro'yxati keltiriladi.

Ariza berilgan nav, zotning belgilari nomlari, ifodalanish darajasi va indeksleri keltiriladi. Berilgan belgining ifodalanish darajasiga mos keladigan indeksi "X" belgisi qo'yilgan holda qayd etiladi.

36. "... seleksiya yutug'ining nomi va belgilari" nomli 6 (a) bandida o'xshash seleksiya yutug'ining nomi va uning ariza berilgan seleksiya yutug'idan farq qiladigan belgilari keltiriladi.

O'xshash seleksiya yutug'i - bu talabnoma topshirilgan sanasiga qadar hammaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lgan aynan shunday botanik yoki zoologik oila turkumi/turidagi seleksiya yutug'i.

6 (b) bandida o'xshash seleksiya yutug'i haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot manbaining bibliografik ma'lumotlari ko'rsatiladi.

37. "Qo'shimcha ma'lumot" nomli 7-bandda qo'shimcha ma'lumotlar, masalan, ushbu navdagi o'simliklarning zararkunandalar va kasalliklarga bardoshlilik, ushbu zotdagi hayvonlarni oziqlantirish darajasi va ularni rarvarishlash texnologiyasiga talablar, hamda seleksiya yutug'i sinovlarini o'tkazishning alohida xususiyatlari va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

7.1-bandda quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

nav uchun - ariza berilgan nav bardoshli bo'lgan zararkunandalar va kasalliklarning nomlari ko'rsatiladi, zotlar/shtammlar ko'rsatiladi;

zot uchun - ariza berilgan zotni oziqlantirish darajasi, ravvarishlash va foydalanishga qo'yiladigan alohida talablar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

7.2-bandida sinovlarni o'tkazishning alohida sharoitlari (agar ular mavjud bo'lsa), masalan nav uchun - sug'orish, o'g'itlash va boshqalar ko'rsatiladi.

"Boshqa ma'lumotlar" nomli 7.3-bandida ariza berilgan nav yoki zotni xo'jalik belgilari ko'rsatkichlari bo'yicha ifodalovchi qo'shimcha ma'lumotlar, mahsulot sifati, navning tezrishariligi, sovuqqa bardoshliligi, qurg'oqchilikka bardoshliligi, chorvachilik mahsulotlarining yangi sifatlarini ta'minlovchi zotning texnologik o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar yoki mahsuldorligi, masalan, tez o'sishi (tirik vaznining o'sishi), urg'ochilarining sermahsulligi (bolalash ko'rsatkichi) va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

38. Tavsif talabnoma beruvchi(lar) tomonidan familiya va ismi-shariflari ko'rsatilgan holda imzolanadi.

39. Agar talabnoma ko'r liniyali nav, zot yoki rorulyasiyaga (o'z-o'zini changlatuvchi va vegetativ ko'payuvchi o'simliklarga) torshirilsa, u ushbu nav, zotning barcha liniyalariga tavsifni (texnik anketani) ichiga olishi kerak.

40. Namunalarning fotosuratlari o'simlik yoki hayvonning belgilari to'g'risida to'liq detalli (umumiy ko'rinishi, oldidan, chardan, o'ngdan, orqadan, yuqoridan, rastdan) tasavvurni berishi lozim.

41. Fotosuratlardagi tasvirlar aniq va yorqin bo'lishi kerak. O'simlik yoki hayvonning alohida detallari fotosuratlarda nafaqat yoritilgan tomonlarida, balki soya tomonida ham yaxshi ko'rinib turishi lozim.

Fotosuratlar bir tekis yoritilgan holda, neytral fonda, begona rredmetlarsiz tayyorlanishi lozim.

42. Fotosuratlar quyidagi: umumiy ko'rinishi, yonidan ko'rinishi, orqadan ko'rinishi va boshqa ko'rinishlar tartibida raqamlanadi.

Bir ko'rinishdagi tasvirlar bitta raqam ostida keltiriladi.

43. Fotosuratlarning orqa tomonida fotosuratning raqami (foto I), seleksiya yutug'ining nomi, hamda "umumiy ko'rinishi", "yonidan ko'rinishi", "oldidan ko'rinishi", "orqadan ko'rinishi" va hokozolar ketma-ket ko'rsatiladi.

44. O'simlik naviga talabnoma normal rivojlangan o'simlikning uni xo'jalikda ishlatilishi fazasidagi va gullari, (g'unchasi, guli - yuqoridan, yonidan, rastdan ko'rinishi), gulshodasi, o'simliklarning rerroduktiv qismlarining (boshhoqlari, so'tasi, qilchalari, doni, mevalari, mevachalari, tuganaklari,

ildizmevalari va boshqalarning) 90x120 yoki 130x180 mm li o'lchamli oq-qora yoki rangli fotosuratlarini ichiga oladi.

Bundan tashqari, quyidagi o'simliklar bo'yicha:

g'o'za bo'yicha - o'simliklar rangli fonda, simrodial shoxlanish turidagi navlari bo'yicha - ikkita xos bo'lgan shoxlarning; nol shoxlanish turidagi navlari bo'yicha - royasining bo'g'imlari, barglari, gullari va chanoqlari bilan birga qismlari, ikkita-uchta titilgan momiqlari va tolaning ikkita-uchta tolimlarining fotosuratlari;

tamaki va maxorka bo'yicha - gulshodali va o'rtacha yarusdagi bargli normal rivojlangan o'simlikning fotosuratlari;

ko'r yillik mevali o'simliklar bo'yicha - daraxt yoki butaning o'zini va uning alohida qismlarining (bir yoshlik ko'chat, meva tuguvchi organlari, kurtaklari, barglari, to'rlari, mevalari va boshqalarning) fotosuratlari qo'shimcha ravishda ilova qilinadi.

45. Hayvon zotiga talabnoma ushbu hayvon zoti vakillariga: nasldor erkak, urg'ochi, voyaga yetgan yosh hayvonga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi va alohida xususiyatlarini, qorako'lchilikda qorako'l terini, irak qurti gibridlari (zotlari) bo'yicha rillalarni ifodalaydigan 90x120 mm o'lchamli oq-qora yoki rangli fotosuratlarini ichiga oladi.

3-§. Yo'l qo'yilmaydigan elementlar

46. Talabnomada ahloq-odob va ijtimoiy tartibga zid iboralar, chizmalar, rasmlar, fotosuratlar va boshqa materiallar; boshqa shaxslarning mahsulotlari, shuningdek talabnomalari va patentlariga nisbatan bayon qilingan iltifotsiz fikrlar; seleksiya yutug'iga ochiqdan-ochiq taalluqli bo'lmagan yohud talabnoma hujjatlarini ushbu Qoidalarning tegishli talablariga muvofiq deb e'tirof etish uchun zarur bo'lmagan ma'lumotlar va fikrlar bo'lmasligi lozim. "O'xshash nav, zotning nomi va belgilari" bo'limida keltirilgan ma'lum seleksiya yutuqlarining kamchiligini oddiy tarzda ko'rsatish yo'l qo'yib bo'lmaydigan element deb hisoblanmaydi.

4-§. Atamalar va belgilar

47. Seleksiya yutug'ining tavsifida (texnik anketasida) standartlashtirilgan atamalar va qisqartmalar, ular mavjud bo'lmagan hollarda esa ilmiy va texnikaviy adabiyotda hamma qabul qilgan atamalar va qisqartmalar qo'llaniladi.

Adabiyotda keng qo'llanilmaydigan atama va qisqartmalar ishlatilganda, ularning ma'nosi matnda birinchi marta qo'llanilganda tushuntirib beriladi.

Ilmiy-texnika adabiyotlarida ilmiy deb e'tirof qilinmagan tushunchalarni ta'riflovchi atamalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Hamma shartli belgilar rasshifrovka qilinadi.

Fizikaviy kattaliklar amaldagi SI Xalqaro birliklar tizimi birliklari bilan ifoda etiladi.

5-§. Talabnoma hujjatlarini rasmiylashtirish

48. Hamma hujjatlar, zarur bo'lgan hollarda ularni bevosita rerroduksiya qilinib, cheklanmagan miqdorda nusxa ko'chirish imkoniyati bo'lgan tarzda rasmiylashtiriladi.

Har bir varaqning faqat bir tomonidan, qatorlarni varaqning kichik tomoniga parallel joylashtirilgan holda foydalaniladi.

49. Talabnomaning hujjatlari rishiq, oq, tekis, yarqiramaydigan qog'ozda bajariladi. Talabnoma hujjatlarining nusxasi MO'T da ham berilishiga yo'l qo'yiladi.

50. Talabnomaning har bir hujjati alohida varaqdan boshlanadi. Varaqlar 210x297 mm formatga ega bo'ladi.

Tavsif, muhim belgilar majmuini o'z ichiga olgan varaqning hoshiyasi quyidagicha bajariladi, mm:

yuqorisi - 20;

o'ngdagi – 20;

rastki – 20;

chardagi – 25.

51. Talabnomaning har bir hujjati (ariza, tavsif (texnik anketa) belgilar ro'yxati bilan birga, fotosuratlar) bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda birdan boshlangan raqamlanishga ega. Varaqlarning raqamlari ikkinchi varaqdan boshlab arab raqamlari bilan qo'yiladi.

MO'T da taqdim qilinadigan materiallarga qo'yiladigan talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

52. Hujjatlar qora rangli shrift bilan bosmadan chiqariladi. Tavsifning matni 1,5 interval orqali bosh harflarining balandligi 2,1 mm dan kam bo'lmagan holda bosmadan chiqariladi.

53. Simvollar, lotincha nomlar, lotincha harflar qora rangli siyoh, rasta yoki tush bilan keyin yozib qo'yilishi mumkin.

54. Axborot manbalarining bibliografiya ma'lumotlari ular bo'yicha axborot manbaini torish mumkin bo'lgan holda ko'rsatilishi lozim.

6-§. Talabnoma topshirish

55. Muallif (hammualliflar), ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorisi patent berish haqidagi talabnomani topshirish va patent olish huquqiga ega.

56. Patent berish haqidagi talabnoma Patent idorasiga bevosita topshiriladi yoki pochta orqali jo'natiladi.

57. Patent berish haqidagi talabnoma shaxsan talabnoma beruvchi tomonidan, Patent idorasida ro'yxatga olingan patent vakili orqali yoki boshqa ishonchli shaxs orqali topshirilishi mumkin.

58. Qonunning 16-moddasiga muvofiq boshqa davlatlarning O'zbekiston Respublikasida doimiy turar joyiga ega bo'lmagan fuqarolari va boshqa davlatlarning O'zbekiston Respublikasida doimiy manzili bo'lmagan yuridik shaxslari, ularning patent vakillari yoki ishonchli shaxslari patent olish va uni o'z kuchida saqlash borasidagi ishlarni, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etadigan xalqaro bitimda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining patent vakillari orqali olib boradilar.

II bob. Patent olish bo'yicha Patent idorasi bilan ishlarni yuritish

7-§. Ishonchli vakilni tayinlash

59. Talabnoma bo'yicha ishlarni olib borish va talabnomani ko'rib chiqishda o'z manfaatlarini himoya qilish uchun talabnoma beruvchi ishonchnoma berish orqali patent vakilini yoki ishonchli shaxsni tayinlashi mumkin.

Patent idorasida vakillik qilish uchun O'zbekiston Respublikasida rasmiylashtiriladigan ishonchnoma oddiy yozma ravishda tuziladi.

Agar ishonchnoma o'zbek yoki rus tilidan boshqa tilda berilgan bo'lsa, unga o'zbek yoki rus tilidagi tarjimai ilova qilinadi.

Ishonchnoma talabnoma topshirilishi bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

Agar ishonchnoma, Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan bir necha patent vakili nomiga berilgan bo'lsa, u holda talabnoma bo'yicha patent olish ishlari ularning har biri tomonidan olib borilaveradi.

8-§. Patent idorasi va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yozishmalarni olib borish

60. Yozishma talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili yohud ushbu ishga vakolat berilgan ishonchli vakili bilan har bir talabnoma bo'yicha alohida olib boriladi.

61. Talabnoma topshirilgandan keyin yuboriladigan materiallarda talabnoma raqami va talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili yohud ishonchli vakilining imzosi bo'lishi shart.

Talabnoma raqami ko'rsatilmagan materiallar, agar raqamni bilvosita aniqlash imkoni bo'lmasa, ko'rib chiqilmasdan qaytarib yuboriladi.

62. Talabnoma bo'yicha ish yuritish jarayonida yuboriladigan materiallar Qonunda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

63. Patent idorasiga yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga talablarga rioya qilinmagan holda kamchiliklar bilan taqdim etilgan materiallar bo'yicha ko'rsatilgan muddatda tuzatilgan va/yoki etishmayotgan materiallarni taqdim etish taklif qilingan bildirishnoma jo'natiladi. Talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili yohud ishonchli shaxsi bo'lmagan shaxslar tomonidan taqdim etilgan materiallar ko'rilmaydi. Bunday materiallarni yuborgan shaxsga tegishli bildirishnoma yuboriladi.

9-§. Talabnoma hujjatlariga qo'shimchalar, aniqliklar va tuzatishlar kiritish

64. Qonunning 20-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq talabnoma beruvchi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran ikki oy mobaynida seleksiya yutug'ining mohiyatini o'zgartirmagan holda o'z tashabbusi bilan talabnoma materiallariga qo'shimchalar, aniqliklar yoki tuzatishlar kiritishga haqlidir.

65. Belgilangan miqdordagi patent boji to'langan taqdirda talabnoma bo'yicha tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin ham, lekin patent berish haqidagi qaror chiqarilgunga qadar tegishli ariza berish yo'li bilan kiritilishi mumkin.

Arizaga, talabnoma materiallariga o'zgartirishlar kiritish uchun patent boji to'langani haqidagi hujjat ilova qilinadi. Patent boji to'langani haqidagi hujjat taqdim etilmagan taqdirda yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. To'langan patent bojining summasi belgilangan miqdordan kam bo'lganda talabnoma beruvchi Patent idorasi tomonidan patent bojining yetishmayotgan qismini to'lash haqidagi bildirishnomasi yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy mobaynida kerakli summani to'lash huquqiga ega.

66. Talabnoma materiallarini tuzatish, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish talabnoma beruvchi tomonidan yozma ravishda tegishli arizalar va almashtiruvchi varaqlar yoki fotosuratlarini berish yo'li bilan amalga oshiriladi va ular talabnoma hujjatlarining har bir nusxasi uchun taqdim etiladi. Ariza shakllari ushbu Qoidalarga berilgan 4-, 5-, 6-ilovalarda keltirilgan. Almashtiriluvchi varaqlar talabnoma tegishli hujjatining har bir nusxasi uchun o'zbek yoki rus tilida taqdim etiladi.

Talabnoma beruvchi ariza Patent idorasiga kelib tushganligi va uni ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilinadi.

67. Talabnoma beruvchi - yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi) o'zgartirilganda Patent idorasiga talabnoma beruvchining nomiga o'zgartirish kiritish haqida ariza beriladi va ushbu o'zgartirishlarni tasdiqlaydigan hujjat taqdim etiladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 4-ilovada keltirilgan.

68. Talabnomaga bo'lgan huquq boshqa shaxsga o'tkazilgan holda Patent idorasiga talabnoma beruvchini o'zgartirish to'g'risidagi yozuvni kiritish haqida ariza beriladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 5-ilovada keltirilgan.

Patent olishga bo'lgan huquqni berishda yoki talabnoma beruvchining nomi o'zgarishi natijasida talabnoma beruvchini ko'rsatishni o'zgartirish seleksiya yutug'ini O'simliklar navlari davlat reestrda yoki Hayvon zotlari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazish sanasiga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Arizada talabnomaga bo'lgan huquq boshqa shaxsga - huquq vorisiga o'tkazilishi haqida ko'rsatma va bu shaxs haqidagi ma'lumotlar keltirilishi lozim. Ariza talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi tomonidan ushbu Qoidalarning 25-bandida ko'zda tutilgan tartibda imzolandi.

Ariza faqat talabnoma beruvchi tomonidan imzolangan holda, unga talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi tomonidan imzolangan huquq o'tkazilganligini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 5-ilovada keltirilgan.

69. Belgilangan talablar bajarilgan holda talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi talabnoma materiallariga talabnoma beruvchi o'zgartirilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilganligi haqida xabardor qilinadi. Keyingi barcha yozishmalar yangi talabnoma beruvchi bilan olib boriladi.

Talabnomaga bo'lgan huquq o'tgan sana deb talabnoma beruvchi va uning huquq vorisiga talabnoma beruvchi o'zgartirilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilganligi haqidagi bildirishnoma yuborilgan sana hisoblanadi. Belgilangan talablar bajarilmagan holda talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi taqdim etilgan hujjatlarga aniqlik va/yoki tuzatish kiritish zarurligi haqida yoki tegishli sabablarni ko'rsatgan holda talabnoma materiallariga talabnoma beruvchi o'zgartirilganligi to'g'risidagi yozuv kiritish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi.

70. Patent idorasi tegishli talabnoma raqami va kiritilishi lozim bo'lgan tuzatishlar ko'rsatilgan holda talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili yohud ishonchli shaxsi tomonidan imzolangan tuzatishlar kiritish haqidagi arizani qabul qiladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 6-ilovada keltirilgan.

Talabnoma hujjatlaridagi yaqqol ayon bo'lgan xatolarni va texnik xatolarni tuzatish seleksiya yutug'ini tegishli reestrda ro'yxatdan o'tkazish sanasiga qadar amalga oshirilishi mumkin. Tuzatish, agar mutaxassis uchun hammaga ma'lum bo'lgan bilimlar doirasidan taklif qilinayotgan tuzatishdan boshqasi mumkin bo'lmasa, yaqqol ayon bo'lib hisoblanadi.

Agar tuzatishlar bibliografiya ma'lumotlarini ko'rsatishdagi xatoliklarga va boshqa shu kabi xatolarga oid bo'lib, hujjatni tuzatish bevosita nusxa olishda aniqlikka nisbatan salbiy oqibatlariga olib kelmasa, tuzatish kiritish zarurligi almashtiriladigan varaqlarni taqdim etmasdan talabnoma beruvchining xatida bayon qilinishi mumkin.

71. Belgilangan talablar bajarilmagan holda, talabnoma beruvchi tegishli sabablar ko'rsatilib, talabnoma materiallariga o'zgartirish kiritish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi.

10-§. O'tkazib yuborilgan muddatni qayta tiklash

72. Qonunning 20-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq talabnoma beruvchi tomonidan qo'shimchalar, tuzatishlar va aniqliklarni taqdim etishning o'tkazib yuborilgan muddati uning iltimosnomasiga binoan tiklanishi mumkin.

73. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash haqidagi iltimosnoma taqdim etilish muddati o'tkazib yuborilgan hujjat bilan birga bu muddat o'tganidan keyin olti oydan kechiktirmay, ushbu muddat o'tkazilib yuborilishiga olib kelgan uzrli sabablar ko'rsatilgan holda talabnoma beruvchi tomonidan topshiriladi. Patent idorasi ko'rsatilgan sabablarning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rashga haqli.

74. Iltimosnomaga belgilangan miqdorda tegishli patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi. Patent bojini belgilangan miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatilgan muddatda taqdim etilmagan holda, yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

75. O'tkazib yuborilgan muddat tiklangani to'g'risida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

76. Agar yuqorida ko'rsatilgan talablardan birortasiga rioya qilinmagan holda iltimosnoma qanoatlantirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

11-§. Talabnoma beruvchini talabnoma materiallari bilan tanishtirish

77. Talabnoma beruvchi (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsi) o'zi topshirgan talabnoma va shu talabnoma bo'yicha Patent idorasi yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan olib borilgan yozishmalar bilan kuni va soatini avvaldan kelishib, bevosita Patent idorasida yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlarda, va shuningdek talabnoma, unga taalluqli materiallar yoki ularning qismlari nusxasini so'rovnoma orqali olib tanishishi mumkin.

78. Huquqni muhofaza qilish organlari talabnoma materiallari bilan belgilangan tartibda tanishadilar.

12-§. Talabnomani talabnoma beruvchi ishtirokida ko'rib chiqish

79. Talabnoma bilan bog'liq savollarni talabnoma beruvchining (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsi) ishtirokida ko'rib chiqish, Patent idorasining taklifi bo'yicha yoki talabnoma beruvchining iltimosiga ko'ra ikkala tomon bu savollar bilan tanishib chiqqanidan so'ng, amalga oshiriladi.

80. Ekspertizaning savollari uchrashish maqsadga muvofiqligi ma'lum qilingan so'rovnoma, talabnoma beruvchining savollari esa, uchrashuv o'tkazish haqidagi iltimosnomada bayon qilinishi mumkin.

81. So'rovnoma berilgan holda talabnoma beruvchi talabnomani ko'rib chiqishda ishtirok etishidan qat'iy nazar javob Qonunda belgilangan muddatda taqdim etiladi. Talabnomani talabnoma beruvchi ishtirokida ko'rib chiqish sanasi va vaqti oldindan kelishib olinadi. Sharoit o'zgargan holda belgilangan vaqtda talabnomani ko'rib chiqishda ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan tomon darhol bu haqida ikkinchi tomonni xabardor qiladi.

82. Bir o'zi talabnoma beruvchi bo'lmagan shaxs faqat vakillik qilish uchun ishonchnomasi bo'lgan taqdirda boshqa talabnoma beruvchilarsiz o'zi talabnomani ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

83. Talabnomani talabnoma beruvchining ishtirokida ko'rib chiqish muzokara yo'li bilan yoki ekspert kengashida amalga oshiriladi.

Agar savollar bevosita ekspert va talabnoma beruvchi tomonidan hal qilingan holda muzokaralar, agar savollarni hal qilish uchun ekspertiza tomonidan bir necha mutaxassislar ishtirok etishi talab etilsa, ekspert kengashi o'tkaziladi.

Muzokaralar va ekspert kengashi natijalari bo'yicha belgilangan shaklda ikki nusxada ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlarni, tomonlar tarafidan keltirilgan dalillar va takliflar va keyingi ish yuritish haqidagi xulosalarni ichiga olgan bayonnoma tuziladi.

Bayonnomada ekspertizaning yozma tushuntirishlar talab qilgan savollari, talabnoma beruvchi (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsi) tomonidan taklif etilgan nav, zot belgilaridagi ifodalanish darajasi va indekslarini aniqlashtirish, talabnomani chaqirib olish haqidagi ariza va hokazolar keltirilishi mumkin.

Bayonnoma ko'rib chiqishning barcha ishtirokchilari tomonidan imzolanadi. Bir nusxasi talabnoma materiallariga qo'shib qo'yiladi, ikkinchisi esa talabnoma beruvchiga (uning patent vakiliga yoki ishonchli shaxsiga) beriladi.

Muhokama qilingan savollar bo'yicha kelishuvga erishilmagan holda, bayonnomada ko'rib chiqish ishtirokchilarining alohida fikri qayd etilishi mumkin. Talabnoma beruvchiga (uning patent vakiliga yoki ishonchli shaxsiga) beriladigan tegishli xulosalarni ichiga olgan bayonnoma nusxasi ekspertiza savollari haqidagi so'rovnomaning o'rnini bosishi mumkin, bu haqida tegishli yozuv qayd etib qo'yiladi.

84. Bayonnoma talabnoma beruvchining ekspertiza so'rovnomasiga javobining o'rnini bosadi (agar, bu holda javob berish uchun belgilangan muddatlar buzilmagan bo'lsa). Bu holda bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi.

13-§. Talabnomani talabnoma beruvchi tomonidan chaqirib olinishi

85. Qonunning 24-moddasiga muvofiq patent berish haqidagi talabnoma patent berish to'g'risida yoki patent berishni rad etish haqida qaror qabul qilungunga qadar talabnoma beruvchining yozma iltimosnomasiga binoan chaqirib olinishi mumkin. Talabnoma beruvchilar bir nechta bo'lsa, patent berish haqidagi talabnoma faqat ulardan har birining roziligi bilan chaqirib olinishi mumkin.

Chaqirib olish to'g'risidagi ariza qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma talabnoma beruvchiga jo'natilgan sanadan e'tiboran talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

Talabnoma beruvchiga talabnomani chaqirib olinganligi to'g'risida bildirishnoma jo'natilganidan so'ng ushbu talabnoma bo'yicha ish yuritish to'xtatiladi.

86. Chaqirib olingan va chaqirib olingan deb hisoblanadigan talabnoma yuridik oqibatlariga olib kelmaydi, ya'ni u bo'yicha hech qanday yuridik ahamiyatga molik amallar olib borilishi mumkin emas (bunday talabnoma bo'yicha ekspertiza o'tkazilmaydi, patent berilmaydi va h.k.) va kelgusida talabnoma beruvchining huquqlari ushbu talabnomaga asoslanishi mumkin emas (xususan, keyingi talabnomani topshirishda chaqirib olingan talabnoma yoki unga qo'shimcha materiallar kelib tushgan sanasi bo'yicha ustuvorlik so'rash mumkin emas).

Chaqirib olingan va chaqirib olingan deb hisoblanadigan talabnoma seleksiya yutuqlariga berilgan boshqa talabnomalar bo'yicha ekspertiza o'tkazish jarayonida yangilikka tekshirilganda inobatga olinmaydi.

87. Talabnoma beruvchining talabnomani chaqirib olish to'g'risidagi arizasi ma'lumot uchun qabul qilingani haqidagi bildirishnoma jo'natilgandan keyin kelib tushgan ushbu arizani haqiqiy emas deb hisoblash haqidagi iltimosi qanoatlantirilmaydi.

III bob. Talabnomani ko'rib chiqish

14-§. Kelib tushgan talabnomani ro'yxatdan o'tkazish

88. Patent idorasiga kelib tushgan talabnoma materiallari, agar ular kamida o'zbek yoki rus tilida patent berish to'g'risidagi ariza va belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlaydigan yoki belgilangan miqdorda patent bojini to'lashdan ozod etish uchun yohud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjatni ichiga olsa, ular kelib tushgan sanasi ko'rsatilgan holda seleksiya yutug'iga talabnoma sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

89. Talabnomaga ro'yxat raqami beriladi.

Talabnoma beruvchi ro'yxat raqami va kelib tushgan sanasi ma'lum qilingan holda talabnoma materiallari kelib tushganligi fakti haqida uch kun ichida xabardor qilinadi.

90. Ro'yxatdan o'tkazilgan talabnoma materiallari qaytarilmaydi.

91. Talabnoma materiallari to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasiga kelib tushgandan sanadan to kelib tushgan talabnoma haqidagi ma'lumotlar rasman e'lon qilingunga qadar konfidensial hisoblanadi va talabnoma beruvchining rozilgisiz e'lon qilinishi mumkin emas.

92. Qonunning 19-moddasiga muvofiq talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining davlat ekspertizasi Patent idorasida o'tkaziladigan talabnomaning rasmiy ekspertizasini va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar amalga oshiradigan mazkur seleksiya yutug'i yangilik ekanligini ekspertiza qilishdan hamda farqlanish, turdoshlik va barqarorlikni aniqlash maqsadida sinovdan o'tkazishdan iborat patentga layoqatlilik ekspertizasini o'z ichiga oladi.

15-§. Rasmiy ekspertiza

93. Qonunning 20-moddasiga muvofiq talabnomaning rasmiy ekspertizasi talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanadan boshlab ikki oy o'tgandan keyin o'tkaziladi.

94. Rasmiy ekspertiza o'tkazish davomida quyidagilar tekshiriladi:

a) seleksiya yutug'i O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan botanik yoki zoologik oila turkumlari va turlariga taalluqli ekanligi;

b) talabnoma tarkibida bo'lishi yoki unga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarning mavjudligi;

v) taqdim etilgan hujjatlarga qo'yilgan talablarga rioya qilinganligi;

g) Qonunning 16-moddasi ikkinchi qismida ko'zda tutilgan hollarda talabnoma topshirish tartibiga, jumladan vakilning vakolatlarini tasdiqlaydigan ishonchnomaning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilishiga rioya qilinganligi;

d) talabnoma bo'yicha Patent idorasiga kelib tushgan sanasidan avvalroq ustuvorlikni so'rash asoslanganligi.

95. Ro'yxatdan o'tkazilgan talabnomada talabnomani topshirish uchun belgilangan miqdorda boj to'langanini tasdiqlaydigan hujjat mavjudligi tekshiriladi. Bunday hujjat yoki ko'rsatilgan patent bojini to'lashdan ozod qilish yohud uning mikdorini kamaytirish uchun asoslar mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat bo'lmagan taqdirda talabnoma bo'yicha yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi.

96. Agar ariza topshirilganda, patent boji belgilangan miqdordan kam to'lagan bo'lsa, talabnoma beruvchiga bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida talabnomani topshirish uchun belgilangan miqdordagi patent bojining yetishmayotgan qismini to'lash zarurligi haqida bildirishnoma yuboriladi. Talabnoma beruvchiga, shuningdek belgilangan miqdordagi patent bojini belgilangan muddatda to'langanini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilmagan taqdirda talabnoma bo'yicha yuridik ahamiyatga molik harakatlar o'tkazilmasligi haqida xabar beriladi.

Patent bojini to'lashga taalluqli bildirishnoma talabnoma beruvchiga talabnoma materiallarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi bildirishnoma bilan bir vaqtda jo'natilishi mumkin.

97. Agar rasmiy ekspertiza jarayonida talabnoma hujjatlari qo'yilgan talablarga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgani aniqlansa, talabnoma beruvchiga yetishmagan yoki tuzatilgan hujjatlarni so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran ikki oy ichida taqdim etish taklif etilgan so'rovnoma yuboriladi.

Quyidagilar so'rovnoma yuborish uchun asos bo'ladi:

a) talabnomada ushbu Qoidalarng 6-bandida ko'zda tutilgan hujjatlardan hech bo'lmaganda bittasi bo'lmasa;

b) talabnoma patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilganda vakillik qilishga ishonchnoma yo'qligi va/yoki uni rasmiylashtirish qoidalari buzilganligi;

v) talabnoma hujjatlari belgilangandan kam nusxada topshirilganda;

g) O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi jismoniy shaxslar yoki xorijiy yuridik shaxslar tomonidan talabnoma Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari orqali topshirilmaganda, agar xalqaro bitimlarda talabnomani bunday topshirish ko'zda tutilgan tartib o'rnatilmagan bo'lsa;

d) patent berish uchun arizada ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan rekvizitlar, imzolar, muhr (zarur bo'lgani holda) yo'qligi;

e) patent bojlari to'g'ri to'langanligi bilan bog'liq savollarni aniqlash zaruriyati;

j) talabnoma hujjatlarining o'zbek yoki rus tiliga tarjimai yo'qligi, agar ular boshqa tilda topshirilgan bo'lsa;

z) hujjatlardan bevosita nusxa ko'chirishga, ularni saqlashga to'sqinlik qiladigan va/yoki patent tavsifini nashr etishga tayyorlash imkoniyatini bermaydigan kamchiliklar (varaqlar formatiga, hoshiyalarning o'lchamlariga va hokozolarga qo'yilgan talablar buzilganda, fotosuratlarining sifati, talabnoma materiallarini o'qishni qiyinlashtiradigan matnning bosma sifati va h.k.) aniqlanganda;

i) talabnoma hujjatlarining bir-biriga mos emasligi (arizada keltirilgan seleksiya yutug'i nomi tavsifda (texnik anketada) keltirilgan nomiga mos emasligi; arizada keltirilgan talabnoma beruvchining nomi tavsifda (texnik anketada) keltirilgan nomiga mos emasligi va hokozo);

k) seleksiya yutug'ining tavsifida (texnik anketasida) ushbu Qoidalarning 29-39-bandlari va 2-, 3-illovalarida ko'zda tutilgan ma'lumotlarning mavjud emasligi (agar tegishli bo'limda bayon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar boshqa bo'limda keltirilgan bo'lsa, u holda bildirishnoma jo'natilmaydi);

l) seleksiya yutug'i nomining ushbu Qoidalarining 26-28-bandlari talablariga mos kelmasligi;

m) talabnomada avvalroq ustuvorlik so'rash bilan bog'liq savollarni aniqlash zaruriyati;

n) ushbu Qoidalarining talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ini patentga layoqatligiga ekspertiza o'tkazmagan holda aniqlanadigan talabnoma hujjatlariga qo'yilgan talablar boshqa buzilishlarining mavjudligi.

98. Agar talabnoma beruvchi belgilangan muddatda ushbu Qoidalarining 6-bandida ko'zda tutilgan so'ralgan materiallarni taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. Talabnoma bo'yicha ish yuritish to'xtatiladi.

99. O'tkazib yuborilgan muddat Patent idorasi tomonidan ushbu Qoidalarining 10-§ ga muvofiq tiklangan holda ish yuritish davom ettirilishi mumkin.

100. Agar talabnomani rasmiy ekspertizadan o'tkazish natijasida talabnoma O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinmaydigan botanik yoki zoologik oila turkumi va turiga topshirilganligi aniqlangan bo'lsa, u holda materiallar ko'rib chiqilmaydi, talabnoma esa chaqirib olingan deb hisoblanadi va bu haqda talabnoma beruvchiga xabar qilinadi.

101. Agar talabnoma barcha zarur hujjatlarni ichiga olsa, ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga rioya qilingan bo'lsa, talabnoma beruvchiga talabnoma ko'rib chiqishga qabul qilinganligi va yangilikka ekspertiza o'tkazilishi uchun patent bojini to'lash kerakligi to'g'risida qaror yuboriladi.

16-§. Seleksiya yutug'iga ustuvorlik sanasini belgilash

102. Seleksiya yutug'ining ustuvorligi patent berish uchun talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

Agar talabnomada seleksiya yutug'ining ustuvorligi Qonunning 18-moddasi uchinchi, to'rtinchi qismlariga ko'ra so'ralmayotgan bo'lsa, u holda ustuvorlik talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

Ko'rsatilgan hujjatlar bir vaqtda topshirilmagan taqdirda, ustuvorlik eng oxirida topshirilgan hujjat kelib tushgan sana bo'yicha belgilanadi.

103. Seleksiya yutug'ining ustuvorligi, agar Qonunning 18-moddasi uchinchi qismi bilan ko'zda tutilgan talablarga rioya qilingan bo'lsa, va talabnoma beruvchi tomonidan so'ralayotgan ustuvorlikni tasdiqlovchi zarur bo'lgan hujjatlar taqdim qilingan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida shartnoma tuzgan boshqa davlatga talabnoma beruvchi tomonidan topshirilgan birinchi talabnomani topshirish sanasi bo'yicha belgilanishi mumkin.

Talabnoma beruvchi birinchi talabnoma bo'yicha u topshirilgan sanadan e'tiboran o'n ikki oy ichida ustuvorlik huquqiga ega bo'ladi.

Talabnoma beruvchi Patent idorasiga jo'natilayotgan talabnomada birinchi talabnomaning ustuvorlik sanasini ko'rsatishi va talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan e'tiboran uch oydan kechikmagan holda birinchi talabnomaning nusxasini va uning tarjimasini taqdim etishi lozim.

104. Birinchi talabnoma bo'yicha ustuvorlik so'ralayotganda quyidagilar tekshiriladi:

talabnoma beruvchi tomonidan boshqa davlatga topshirilgan birinchi talabnomaning tasdiqlangan nusxasining mavjudligi. Agar ko'rsatilgan nusxa talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan keyin taqdim etilgan bo'lsa, u holda talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan sanadan talabnoma nusxasi taqdim etilishi lozim bo'lgan uch oylik muddatga rioya qilinganligi aniqlanadi (agar birinchi talabnomalar bir nechta bo'lsa, ko'rsatilgan shartlar har bir talabnoma nusxalariga nisbatan rioya qilinishi lozim);

talabnoma beruvchi tomonidan birinchi talabnoma topshirilgan sanadan boshlab ustuvorlik so'ralayotgan talabnoma Patent idorasiga kelib tushishi lozim bo'lgan 12 oylik muddatga rioya qilinishi;

talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining nomini va belgilarini birinchi talabnomada keltirilgan nomi va belgilariga mosligi.

105. Agar ustuvorlikni belgilashda yuzaga keladigan savollar ekspertizani o'tkazishga to'sqinlik qilmasa, u holda ular talabnomani ko'rib chiqish bilan bog'liq boshqa masalalar bilan bir vaqtda aniqlanadi.

106. Talabnoma beruvchi tomonidan mazkur Qoidalarning 103-104-bandlarida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinganida talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'iga nisbatan so'ralayotgan ustuvorlik belgilanadi.

107. Talabnoma beruvchi tomonidan mazkur Qoidalarning 103-104-bandlarida ko'rsatilgan talablardan hech bo'lmaganda bittasiga rioya qilinmasligi talab qilinayotgan ustuvorlikni tan olinmasligiga olib keladi.

17-§. Patentga layoqatligiga ekspertiza

108. Qonunning 4-moddasi uchinchi qismiga muvofiq ixtisoslashtirilgan tashkilotlar talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutuqlarining patentga layoqatligini ekspertizadan o'tkazadi.

Patentga layoqatlilik ekspertizasi seleksiya yutug'ining yangiligiga ekspertizadan va farqlanish, turdoshlik va barqarorlik mezonlariga sinovlaridan o'tkazishdan iborat.

109. Belgilangan miqdorda patent boji to'langan holda seleksiya yutug'ining yangiligiga ekspertiza o'tkaziladi.

Agar yangilik mezoniga ekspertiza o'tkazish uchun patent boji belgilangan miqdordan kam to'langan bo'lsa, u holda talabnoma beruvchiga so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida to'langan patent boji summasini tegishli miqdorga yetkazib to'lashi zarurligi haqida xabar qilinadi.

110. Qonunning 22-moddasi birinchi qismiga muvofiq seleksiya yutug'i yangilik ekanligining ekspertizasini ixtisoslashtirilgan tashkilot mavjud hujjatlar va dalil-isbotlar, shu jumladan o'z tashabbusi bilan olgan axborotlar asosida amalga oshiradi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining yangilik mezoniga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to'g'risida Patent idorasiga xulosa taqdim etadi.

Patent idorasi yangilik mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risida talabnoma beruvchini yozma ravishda xabardor etadi.

111. Belgilangan miqdorda patent boji to'langan holda talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining farqlanish, turdoshlik va barqarorlik shartlariga sinovlari o'tkaziladi.

112. Qonunning 23-moddasiga muvofiq talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining sinovlari ixtisoslashtirilgan tashkilotlar belgilagan usul va muddatlarda, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat nav sinash stansiyalarida, davlat nav sinash uchastkalarida, boshqa tashkilotlarda o'tkaziladi.

Talabnoma beruvchi sinov o'tkazish uchun kerakli miqdordagi urug'likni, ko'chat yoki nasl materialini ixtisoslashgirilgan tashkilot tomonidan belgilangan manzilga, ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etishi shart.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot talabnoma beruvchi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va boshqa davlatlarning vakolatli organlari tomonidan taqdim etilgan sinov natijalaridan foydalanishga haqli.

113. Qonunning 23-moddasi beshinchi qismiga muvofiq ixtisoslashtirilgan tashkilot sinov natijalariga ko'ra seleksiya yutug'ining patentga layoqatlilik mezonlariga mosligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

18-§. Seleksiya yutug'iga patent berish to'g'risida qaror

114. Seleksiya yutug'ini patentga layoqatlilik mezonlariga, uning nomi esa belgilangan talablarga mos kelishi aniqlanganida, ixtisoslashtirilgan tashkilot seleksiya yutug'ining patentga layoqatlilik shartlariga mos kelishi haqida xulosa va uning rasmiy tavsifini Patent idorasiga jo'natadi. Patent idorasi ixtisoslashtirilgan tashkilotning xulosasi asosida o'simlik naviga yoki hayvon zotiga patent berish haqida qaror qabul qiladi.

115. Belgilangan patent boji to'langan holda Patent idorasi seleksiya yutug'ini tegishli reestrda davlat ro'yxatidan o'tkazadi va Patent idorasining rasmiy byulletenida seleksiya yutug'ini ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi.

19-§. Patent berishni rad etish to'g'risida qaror

116. Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ini patentga layoqatlilik mezonlaridan hech bo'lmaganida biriga mos kelmasligi aniqlanganida, ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan tegishli asoslar keltirilgan holda farqlanish, turdoshlik, barqarorlik mezonlariga mos kelmasligi haqida xulosa Patent idorasiga jo'natiladi.

Patent idorasi ixtisoslashtirilgan tashkilotning xulosasi asosida o'simlik naviga yoki hayvon zotiga patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va uni ixtisoslashtirilgan tashkilotning farqlanish, turdoshlik, barqarorlik mezonlariga mos kelmasligi haqida xulosasini ilova qilgan holda talabnoma beruvchiga jo'natadi.

20-§. Yakuniy qoidalar

117. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Chorvachilikda naslchilik ishlari bo'yicha bosh davlat inspeksiyasi boshlig'i bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi

Qishloq va suv xo'jaligi vazirining

birinchi o'rinbosari

«___» _____ 2004 y.

_____ A. Jo'rayev

O'zbekiston Respublikasi

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining

Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini

sinash davlat komissiyasi raisi

«___» _____ 2004 y.

_____ S. Murodov

O'zbekiston Respublikasi

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining

Chorvachilikda naslchilik ishlari bo'yicha

bosh davlat inspeksiyasi boshlig'i

«___»_____ 2004 y.

_____ X. G'iyosov